

UDK 334.012.64:311

O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI STATISTIK BAHOLASH

Nazarov Nazar

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti, PhD
nazarbek.2728@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligini statistik tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada, kichik biznesning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati, shuningdek, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat siyosatining roli hamda mavjud qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari baholanadi. O‘zbekistonning tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan statistik tahlillar, o‘rganilgan ma'lumotlar va amaliy misollar orqali iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Shuningdek, maqolada iqtisodiy o‘sish va bandlikni ta‘minlashdagi kichik biznesning o‘rni va uning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistondagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy samaradorlik, statistik ko‘rsatkich, rentabellik.

АННОТАЦИЯ. Данная статья посвящена статистическому анализу экономической эффективности малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан. В статье будет дана оценка важности малого бизнеса для экономики страны и роли государственной политики в развитии частного предпринимательства, а также механизмов существующей поддержки. Показатели экономической эффективности определяются с помощью статистического анализа, изученных данных и практических примеров, проведенных в сфере предпринимательства Узбекистана. В статье также

анализируется роль малого бизнеса в обеспечении экономического роста и занятости, а также основные факторы влияющие на его развитие. Результаты исследования помогут разработать рекомендации по повышению эффективности малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане.

Ключевые слова: малый бизнес и частное предпринимательство, экономическая эффективность, статистический показатель, рентабельность.

ABSTRACT. This article is aimed at statistical analysis of the economic efficiency of small business and private entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan. The article will assess the importance of small business for the country's economy and the role of public policy in the development of private entrepreneurship, as well as the mechanisms of existing support. Indicators of economic efficiency are determined through statistical analysis, studied data and practical examples carried out in the field of entrepreneurship of Uzbekistan. The article also analyzes the role of small business in ensuring economic growth and employment and the main factors affecting its development. The results of the study will help to develop recommendations for improving the effectiveness of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan.

Key words: small business and private entrepreneurship, economic efficiency, statistical indicator, profitability.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylangan. O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, xalqaro tajribalardan foydalangan holda raqobatbardosh bozorda ishtirok etishni ta'minlash uchun sezilarli qadamlar tashlanmoqda. Shunga ko'ra, 2023-yilga kelib O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 50%ni tashkil etadi.

Shu bilan birga, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda dolzarb masalalardan biri - iqtisodiy samaradorlikni o'lchash va bu orqali natijalarni yaxshilashdir. O'zbekiston hukumatining xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan siyosati va statistik baholash natijalari mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va global raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri KBXT sohasini barqaror rivojlantirishdir[1]. Shu nuqtai nazardan, ushbu sohani takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng

qamrovli chora-tadbirlar tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishi uchun kafolatlarning ta'minlanganligi, davlat tomonidan ro'yxatga olishning soddalashgan mexanizmining joriy etilishi va ularning moliyaviy qo'llab-quvvatlanayotganligi bilan izohlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini statistik tadqiq etish borasida bir qancha mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlardan P.Schreyer, D.Kancs (2017) tadqiqotlarida kichik biznesning rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy samaradorligi va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qiladi.

Audretsch, Keilbachning (2007) tadqiqotlarida kichik va o'rta biznesning iqtisodiy tizimdagi ahamiyati va ularning samaradorligini ta'minlashdagi roli haqidagi statistika va tahlillar keltirilgan.

Mahalliy olimlardan A.Salimov (2019) o'z tadqiqotida kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi davlat siyosatining samaradorligi, iqtisodiy o'sishga ta'siri va ish o'rinlari yaratishdagi rolini tahlil qilgan.

B.Xudoyberganov (2022) esa o'z tadqiqotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini statistik usullar orqali baholash va ular orqali iqtisodiy o'sishning yaxshilanishi mumkinligini aniqlagan.

Yuqoridagi olimlar KBXTning iqtisodiy samadorligini turli tomondan statistik baholash me'zonlarini tahlil qilishgan, ammo iqtisodiy statistik ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilish va ular orqali qo'shimcha iqtisodiy samadorlikka erishish ko'rsatkichlari baholanmagan. Bizningcha, KBXTning iqtisodiy samadorligini to'g'ri baholash uchun statistik ko'rsatkichlarni kompleks tahlil etish va bu orqali iqtisodiy samadorlikni aniqroq baholash mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda regression tahlil, o'rta statistik usullar, qiyosiy tahlil va iqtisodiy samadorlikni baholashning boshqa usullaridan foydalanilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehnat unumdorligi kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Mehnat unumdorligi – bu aniq mehnatning mahsuldorligidir. Mehnat unumdorligi mehnat jarayonlarining samaradorlik darajasini ko'rsatadi. Uning o'sishi mahsulot birligi uchun sarflanadigan ish vaqtining tejamini yoki vaqt birligida ishlab chiqariladigan mahsulotni ko'paytirishda ko'rinadi.

1-jadvalda korxonada mehnat unumdorligi hisobiga ish haqining yillik o'sishi ma'lumotlari keltirilgan.

1-jadval

“Toshkent gilami” kichik korxonasida mehnat unumdorligi hisobiga ish hajmining yillik o'sishi[8]

Ko'rsatkichlar	2023 yil	2024 yil	O'tgan davrga nisbatan o'sishi, %
Mahsulot hajmi, mln. so'm	339,6	771,8	2,27 m.
Ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarning ro'yxatdagi o'rtacha soni, kishi	56	72	128,5
Bir ishlovchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, mln. so'm	6,1	10,7	175,4

1-jadvaldagi ko'rsatkichlarning tahlili o'tgan yilga nisbatan ishlar hajmining o'sishi 2,6 foizni, xodimlar sonining o'sishi 128,5 foizni tashkil etganligini ko'rsatadi. Mehnat unumdorligining o'sishi hisobiga hajmlar o'sishi:

$$Q = q_1 - q_0 = 771,8 - 339,6 = 432,2 \text{ mln. so'm.}$$

a) Mehnat unumdorligi o'sishi hisobiga

$$Q_w = (W_1 - W_0) \times T_1 = (10,7 - 6,1) \times 72 = 331,2 \text{ mln. so'm.}$$

b) Ishchilar sonini o'zgarishi hisobiga

$$Q_T = (T_1 - T_0) \times W_0 = (72 - 56) \times 6,1 = 101,0 \text{ mln. so'm.}$$

$$\Delta Q = Q_w + Q_T = 331,2 + 101,0 = 432,2 \text{ mln. so'm.}$$

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonada mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 432,2 mln. so'mga oshgan. Bu o'sishga asosan kichik korxonadagi intensiv omil hisobiga 331,2 mln. so'm (76,6 foiz) erishilgan. Ekstensiv omil hisobiga 101,0 mln. so'm (23,4) lik o'sish yuz bergan. Bu ma'lumotlar mahsulot (ish) hajmining o'sishiga ekstensiv va intensiv omillarning ta'sirini aniqlashga imkon beradi.

Bizning fikrimizcha, kichik korxonada va mikrofirmalarda ishlab chiqarish samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichlariga aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan mahsulot xajmining o'sishi; xarajatlarning bir so'miga ishlab chiqarilgan mahsulot; rentabellik darajasi; yalpi mahsulot yoki tovar mahsulotining bir so'miga ishlab chiqarish va muomala xarajatlari va xakozolar kiradi.

Tahlillarimiz ko'rsatishicha, kichik biznes sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni muntazam ravishda joriy etish;
2. Mehnat unumdorligini o‘shirish su‘ratlari;
3. Fan va texnikada erishilgan eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish;
4. Asosiy ishlab chiqarish fondlari va ishlab chiqarish quvvatlaridan maqsadli foydalanish;
5. Xususiy tarmoq tuzilmasi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarda iqtisodiy salohiyat samaradorligini aniqlash uchun, samaradorlikning an’anaviy ta’rifidan kelib chiqib, natijaviy ko‘rsatkichlarning iqtisodiy salohiyat o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati olinadi. O‘z o‘rnida, kichik korxonaning natijaviy ko‘rsatkichlari bir qancha ko‘rsatkichlar tizimidan iboratdir. Ularga ish natijasini ifodalovchi natijaviy ko‘rsatkichlar (sanoatda - ishlab chiqarilgan yoki sotilgan mahsulot xajmi, qurilishda – bajarilgan qurilish-montaj ishlarining xajmi, savdoda – tovar aylanmasining hajmi, barcha sohalarda daromad va foyda kabi ko‘rsatkichlar) kiradi.

Rentabellik koeffitsienti – kichik korxonalar va mikrofirmalar samaradorligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida KBXT sohasida rentabellikni oshirishning turli xil yo‘llari ichida eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi: narxni pasaytirish va foydani shakllantirish mexanizmini takomillashtirish; mehnat unumdorligini oshirish; ishlab chiqarish fondlari va birinchi navbatda, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash; ishlab chiqarish rentabelligini ta’minlash; mahsulot tannarxining kamayishi va mahsulot sifatini yaxshilash[6].

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida KBXT sohasida rentabellik darajalarining o‘shishi va ishlab chiqarish foydaliligini ta’minlash har qanday kichik korxonaning muhim vazifasi hisoblanadi, vaholanki, endilikda uning ko‘plab masalalari davlat mablag‘lari hisobiga emas, balki o‘zi qo‘lga kiritgan moliyaviy mablag‘lar hisobiga hal qilinadi. Fikrimizcha, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik korxonalar nafaqat ko‘p pul topish, foydani ko‘paytirish va rentabellikni oshirishga intilishi emas, balki o‘zlari ishlab topgan mablag‘larini iqtisod qilishni va ulardan oqilona foydalanishni ham bilishlari kerak. Quyida kichik korxonalar va mikrofirmalarda rentabellik darajasini aniqlash yo‘llarini ko‘rib chiqamiz:

1. Kichik korxonalar va mikrofirmalarda mahsulot rentabelligining mahsulot tannarxiga nisbatan aniqlanishi (R_c):

$$R_c = \frac{\Pi_P}{C_B} \times 100 \quad (2)$$

Bu yerda: Π_P - asosiy faoliyatdan olingan foyda; C_B - sotilgan mahsulot tannarxi

2. Kichik korxonalar va mikrofirmalarda fondlar (kapital) rentabelligi (R_K):

$$R_K = \frac{\Pi_P}{\Phi_{OCH} + \Phi_{OB}} \times 100 \quad (3)$$

Bu yerda, Φ_{OCH} , Φ_{OB} - ishlab chiqarishning asosiy va aylanma mablag' lari.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka oid iqtisodiy adabiyotlarni qiyosiy o'rganish asnosida shunday xulosaga keldikki, tahlil jarayonida qaysi ko'rsatkichlardan qay holatda foydalanish tahlilning bevosita maqsad va vazifalariga bog'liq. Xususan, korxonalar iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishda uning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2-jadval

“Toshkent gilami” kichik korxonasi rentabellik darajasi[8]

№	Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil
1	Ishlab chiqarish hajmiga nisbatan mahsulot rentabelligi, foiz	32,0	34,2
2.	Mahsulot tannarxiga nisbatan rentabellik, foiz	34,5	36,9
3.	Asosiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati, so'm	482561,5	599593,2
4.	Aylanma mablag'larining yillik qiymati, so'm	15876,1	16916,5
5.	Kapitalning umumiy yig'indisi, so'm	498437,6	616509,7
6.	Fondlar(kapital) rentabelligi, foiz	39,2	42,9

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, “Toshkent gilami” kichik korxonasida mahsulotlarning rentabellik darajalari o'rganilayotgan yillarda sezilarli oshgan. Masalan, kichik korxonada 2020 yilda ishlab chiqarish hajmiga nisbatan mahsulot rentabelligi 34,2 foiz (2019 yilda bu ko'rsatkich 32,0 foiz), mahsulot tannarxiga nisbatan rentabellik 36,9 foiz (2019 yilda ushbu ko'rsatkich 34,5 foiz), fondlar (kapital) rentabelligi mos ravishda 39,2 va 42,9 foizni tashkil etgan. Eng avvalo barcha turdagi rentabellik darajalarining ortishiga kichik korxonada mehnatni to'g'ri tashkil etilishi, mahsulot sifati, mahsulot tannarxini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar, fondlardan samarali foydalanish sabab bo'lgan.

KBXT sohasi korxonalarining iqtisodiy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilishning ba'zi nazariy usullari haqida fikr yuritamiz.

Ishlab chiqarish samaradorligi muhim iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, kichik tadbirkorlik iqtisodiyotining rivojlanish darajasini va oqilona tashkil etilishini aks ettiradi. O'z navbatida KBXT sohasi korxonalarida iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish jarayonining unumdorligini, uning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari bilan sarflangan jonli va moddiylashtirilgan mehnat o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi.

KBXT sohasida moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va bozor xizmatlari ko'rsatishning har qanday jarayoni quyidagi model asosida baholanadi. Ya'ni:

$$S = G'(R; Kf) \quad (4)$$

Bu yerda: S - KBXT sohasida ishlab chiqarish natijasi (samarasi); G' - funksional aloqa (bog'lanish) belgisi; R - KBXT sohasida ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar; Kf - KBXT sohasida resurslardan foydalanish darajasi.

Yuqoridagi modeldan ko'rinib turibdiki, KBXT sohasida samara faqat resurslarning mutloq miqdorlari bilan emas, balki bu "resurslardan foydalanish darajasi" bilan ham aniqlanadi.

KBXT sohasida ishlab chiqarish natijalarini unga sarflangan resurslar bilan taqqoslab, kichik korxonalar va mikrofirmalarda ayniqsa moddiy resurslarning qanchalik oqilona ishlatilganligini, ya'ni tegishli resurslar birligidan foydalanish darajasini aniqlash mumkin[7].

KBXT sohasiga oid ko'plab iqtisodiy-statistik adabiyotlarda iqtisodiy samaradorlik mutlaq (absolyut) va qiyosiy (nisbiy) jihatdan aniqlanadi.

Mutloq samaradorlik ishlab chiqarish xarajatlari va resurslarning ma'lum turlaridan foydalanish darajasini aniqlash va statistik baholash uchun ishlatiladi va iqtisodiy samaraning umumiy miqdorini ifodalaydi.

KBXT sohasida mutlaq samaradorlikni hisoblash yo'li bilan mehnat, moddiy resurslar, ishlab chiqarish fondlari va kapital quyilmalardan foydalanish aniqlanadi. Shuning uchun mutlaq samaradorlikni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

KBXT sohasida qiyosiy samaradorlik resurslardan yanada oqilona foydalanish yo'llarini aniqlash uchun esa ishlab chiqarish, xo'jalik echimlarining oqilona variantlarini asoslash va tanlashda qo'llaniladi.

Bizning fikrimizcha, KBXT sohasida samaradorlikni oshiruvchi omillar ishlab chiqarishning mehnat, moddiy, fond hamda mablag'larga bo'lgan talabini pasaytirish, shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdir. KBXT sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning tarmoq omillari: innovasiyalar, mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqish va joriy qilish, tarmoqni boshqarishni yaxshilashdan iborat. Xo'jalik ichidagi omillar kichik korxonalar va mikrofirmalar ko'lamida ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi talablarni qamrab oladi. Umumiy iqtisodiy miqyosda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining iqtisodiy ko'rsatkichi jamiyat rivojining miqdoriy hamda sifat omillarini birgalikda aks ettiradi. Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi asosida esa olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy samara yotadi. KBXT sohasida iqtisodiy samaradorlik xo'jalik yuritish natijalarini ijtimoiy mehnat sarflariga taqqoslab aniqlanadi.

Tahlillarimizga ko'ra, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida KBXT sohasida ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash uchun uning miqdoriy va sifat

tomonlari haqida yaxlit tasavvur beruvchi integral ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zarur. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari. KBXT sohasida asosiy fondlardan foydalanish darajasini quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:

a) Kichik korxonada va mikrofirmalarda uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsienti – kichik korxonalarda asbob-uskunalardan amalda haqiqiy foydalanilgan vaqtning ulardan reja bo'yicha foydalanish muddatiga nisbati orqali aniqlanadi, ya'ni:

$$K_{\text{экс}} = \frac{t_{\text{хак}}}{t_{\text{реж}}} \quad (5)$$

Bu yerda: $t_{\text{хак}}$ – uskunalardan haqiqiy foydalanilgan vaqt, soatlar; $t_{\text{реж}}$ – uskunalarning me'yorga asosan foydalanish muddati, (soatlarda).

2. Kichik korxonada va mikrofirmalarda uskunalardan intensiv foydalanish koeffitsienti. Uni hisoblash uchun quyidagi formula taklif etiladi, ya'ni:

$$K_{\text{инт}} = \frac{B_{\text{ф}}}{B_n} \quad (6)$$

bu yerda: $B_{\text{ф}}$ - vaqt birligida uskunada ishlab chiqarilgan haqiqiy mahsulot miqdori; B_n - vaqt birligida uskunada texnik jihatdan asoslangan mahsulot ishlab chiqarish me'yori.

3. Kichik korxonada va mikrofirmalarda uskunadan integral foydalanish koeffitsienti. Bu koeffitsient uskunadan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsientlarining ko'paytmasi orqali aniqlanib, uning vaqt va quvvat bo'yicha band bo'lishini (foydalanilishini) umumlashgan holda ifodalaydi.

Uskunadan integral foydalanish koeffitsienti quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$K_{\text{интегр.}} = K_{\text{экс}} * K_{\text{инт}} \quad (7)$$

Kichik korxonada va mikrofirmalarda bunday uskunalarning bir emas, bir nechta – o'nta yoki yuztasidan foydalanilishi mumkin.

Kichik korxonada va mikrofirmalarda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichlari – fond qaytimi, fond rentabelligi, fond sig'imi kabilardir.

1) Fond qaytimi- asosiy fondlar birligiga (qiymati bo'yicha) to'g'ri kelgan mahsulot ishlab chiqarishni xarakterlaydi. U kichik korxonada va mikrofirmalarda mahsulot sotishdan tushgan bir yillik tushumning (B) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati (Φ_{ypm})ga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$\Phi_{\text{к}} = \frac{B}{\Phi_{\text{ypm}}} \quad (8)$$

2) Kichik korxonalar va mikrofirmalarda mahsulotning fond sig'imi – fond qaytimiga teskari qiymat bo'lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\Phi_c = \frac{\Phi_{yp}}{B} \quad (9)$$

Kichik korxonalar va mikrofirmalarda fond sig'imi kapital qo'yilmalar (investitsiyalar)ni tejash yoki ko'paytirish bilan uzviy ravishda bog'liq bo'ladi. Masalan, mahsulot fond sig'imi pasayib, uning ishlab chiqarish hajmi doimiy yoki o'suvchi bo'lganda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish sharoitlari yaxshilanadi.

3) Kapital qo'yilmalarini tejashni aniqlashda quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$\mathcal{E}_x = \Phi_e \times B \quad (10)$$

bu yerda, \mathcal{E}_x – kapital qo'yilmalarni tejash, so'm;

Φ_e – hisobot yilida mahsulot fond sig'imining bazis yildagiga nisbatan o'zgarishi, so'm.

4) Fond rentabelligi (F_r) ko'rsatkichi kichik korxonalar va mikrofirmalarning umumiy yillik foydasining – $MR(Q)$ ning asosiy fondlar qiymatiga nisbati bilan quyidagi usulda topiladi:

$$\Phi_p = \frac{MR(Q)}{O_{\Phi}} \quad (11)$$

bu yerda, Φ_p – fond rentabelligi ko'rsatkichi;

$MR(Q)$ – kichik korxonalar va mikrofirmalar umumiy foydasi, so'm;

Kichik korxonalar va mikrofirmalarda ishlab chiqarish quvvati – bor texnik uskunaning berilgan nomenklatura va assortimentda belgilangan ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, kooperatsiyasi va ish tartibiga mutanosib ravishda imkoniyatlarning maksimal hajmdagi tayyor mahsulotini ishlab chiqarishidir.

Bir necha turda mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar va mikrofirmalarda shartli – natural ko'rsatkichlar ishlatiladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar quvvati yil davomida ko'payib, kamayib turadi. Shu bois kichik korxonalar va mikrofirmalarning haqiqiy mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini bilish uchun yillik o'rtacha quvvat reja davrining boshida amal qilayotgan korxonalarda quyidagi tartibda hisoblab topiladi. O'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvatini ($Q_{o'y}$) hisoblashda yil boshida bor bo'lgan quvvatga (Q_b) o'rtacha kiritiladigan yillik quvvat (Q_{kq}) qo'shib o'rtacha chiqariladigan yillik quvvat (Q_{chq}) miqdori ayiriladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarda ishlab chiqarish quvvati balansi quyidagilarni ifoda etadi:

$$Q = Q_b + O'_{tex} + O'_r + Q_{yao'r} + Q_{nq} - Q_{chk} \quad (12)$$

Bu yerda, Q_b - yil boshidagi quvvat; O'_{tex} - ishlab chiqarishni texnikaviy qayta qurish hisobiga quvvatning ko'payishi; O'_r - ishlab turgan korxonani qayta jihozlash hisobiga kiritiladigan quvvat; $Q_{yao'r}$ - yangi korxonalarni qurish va eskilarini rekonstruksiya qilish hisobiga kiritiladigan quvvat; Q_{nq} - mahsulot turi va navini o'zgarishi natijasida quvvatning ko'payishi yoki pasayishi; Q_{chk} - chiqariladigan quvvat hisobiga quvvatning kamayishi.

Ishlab turgan quvvat hisobidan olish mumkin bo'lmagan mahsulot miqdorini ishlab chiqarish uchun yangi, qo'shimcha kiritiladigan quvvatlarni aniqlash zarur.

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi vaqt omili bilan chambarchas bog'liq. Mahsulot uchun ketadigan yillik xarajatlar miqdori ko'p jihatdan aylanma mablag'larning harakat tezligiga bog'liq bo'ladi[8].

$$K_{aii.} = \frac{Q_p}{K_{o\delta k}} \quad (13)$$

bu yerda, $K_{aii.}$ - aylanma mablag'lardan foydalanish koeffisienti; Q_p - jami sotilgan mahsulotning hajmi; $K_{o\delta k}$ - aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i.

Aylanma mablag'larning yuklanish koeffisienti aylanish koeffisientiga teskari bo'lgan qiymatdir. U sotilgan har 1 so'mlik mahsulotga sarflangan aylanma mablag'larni tavsiflaydi hamda quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_{yu} = \frac{S_a}{R_m} \quad (14)$$

Bir marta aylanish davomiyligi kunlarda o'lchanadi hamda shu davrdagi kunlar sonini aylanish koeffisientiga nisbati orqali quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$T = \frac{K}{K_a} \quad (15)$$

bu yerda: K - shu davrdagi kalendar kunlar soni (360, 90).

Bizning fikrimizcha, kichik korxonalar va mikrofirmalarda aylanma mablag'larning to'liq aylanish muddati qanchalik kam yoki bu aylanishlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lar shunchalik kam talab qilinadi va aksincha, aylanma mablag'lar qanchalik tez aylanishda bo'lsa, shunchalik samarali ishlatiladi.

Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish samarasi, ulardan foydalanishni yaxshilash tufayli kamroq iste'mol qilinishi yoki qisman bo'shatilishida aks etadi. Aylanma mablag'lar mutlaq yoki nisbiy ozod qilinishi mumkin.

Mutlaq ozod qilish korxonaning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini kamaytirishni tavsiflaydi hamda mavjud resurslardan oqilona foydalanishga oid turli tashkiliy-texnik chora-tadbirlar hisobiga amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kichik tadbirkorlikda ishlab chiqarish samaradorligini izchil va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlash, jalb etilayotgan investisiyalarni ko'paytirish hisobidan tarkibiy o'zgarishlarni qat'iy davom ettirish, kichik biznes korxonalarini modernizasiya qilish va yangilash – biz uchun bosh vazifa bo'lib qoladi. Buning uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borishni tavsiya etamiz:

1. Respublikamizda KBXT sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, innovasion faoliyatni rivojlantirish uchun sharoit yaratish uchun: xususiy tashabbuskorlikni innovasion tadqiqotlarga qaratuvchi qulay biznes – muhitni shakllantirish maqsadida iqtisodiy siyosat va tarkibiy islohotlar siyosatini optimallashtirish; mikro, mezo va mintaqaviy darajalarda innovasion infratuzilmani rivojlantirishga ko'maklashish (sug'urtalash, innovasion vositachilar instituti, texnoparklar va hakoza).

Mazkur vazifalarni hal qilish jarayonida xususiy tadbirkorlar va tovar ishlab chiqaruvchilar biznesni tashkil qilishning an'anaviy modelidan innovasion modeliga o'tish imkonini qo'lga kiritadilar.

2. KBXT innovasiya faoliyatini faollashtirish ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari va ushbu masalalar bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Taraqqiy etgan davlatlar tajribasining ko'rsatishicha, bu sohada innovasiya faoliyatini rivojlantirishga tamomila yangicha yondashuvni joriy etish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq:

raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradigan fan sig'imi yuqori bo'lgan yuqori texnologik jihozlarni joriy etish;

sanoatda innovasion faoliyatni rivojlantirishning yangi vositalarini yaratish (shartnoma, grant, kooperativ kelishuv);

ilmiy-tadqiqot faoliyatini investisiyalashni bilvosita rag'batlantirish usullarini rivojlantirish (soliq imtiyozlari, pasaytirilgan kredit stavkalari bo'yicha qarz berish, davlat ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv muassasalarini lisenziyalash jarayonini moliyaviy qo'llab-quvvatlash).

3. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida innovasiya faoliyatini kengaytirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

ishlanmalar va ichki texnologik innovasiyalarni moliyalashtiradigan xususiy sektor korxonalariga soliq imtiyozlarini berish;

jadallashgan amortizasiya uchun imkoniyatlarni kengaytirish.

Yuqoridagi omillarni kompleks tahlil etish orqali KBXTlarning iqtisodiy samaradorligining real holatini baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schreyer, P., Kancs, D. (2017). "Small Business and Entrepreneurship: The Economic Impact on Developed Economies". OECD Economics Department Working Papers, No. 1461, OECD Publishing, Paris. P.56.

2. Audretsch, D.B. & Keilbach, M. (2007). "The Role of Small and Medium-Sized Enterprises in Economic Development." International Journal of Industrial Organization, 25(3), P.418-439.

3. Salimov A. (2019). "O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligi: davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari." O'zbekiston iqtisodiyoti va tadbirkorlik. B.45-54.

4. Xudoyberganov B. (2020). "Xususiy tadbirkorlikning O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishga ta'siri va uning samaradorligini baholash." Iqtisodiyot va statistika. B.25-28.

5. Nazarov N. "Statistical research methods of business entities in Free economic zones in Uzbekistan". B.48-58.

6. Nazarov N. "The role of Free economic zones in development of small business in Uzbekistan". Журнал инновации в экономике 4.6 (2021). P.36.

7. Nazarov N. (2021). Analysis of business entities with the development of innovative and investment activities of entrepreneurship in Free economic zones. Theoretical & Applied science. (10), P.719-727.

8. "Toshkent gilami" kichik korxonasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.